

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

“Kompyuter grafikasi va web dizayn” fanidan

REFERAT

Mavzu: HTML buyruqlarining freymlar yozish tartibi va Dream Viewer, Front pağ dasturlarining freym bilan ishlash imkoniyati.

Bajardi:

Olloqova D.

Qabul qildi:

Xayatov X.

Buxoro-2016

Mavzu: HTML buyruqlarining freymlar yozish tartibi va Dream Viewer, Front page dasturlarining freym bilan ishlash imkoniyati.

Reja:

1. Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot.
2. HTML ning asosiy teglari.
3. Freymlar va formalar.
4. Dream Viewer dasturi haqida qiqacha.
5. Dream viewer dasturida freymlar bilan ishlash.
6. Front Page dasturining imkonyatlari.
7. Front Page dasturining freymlar bilan ishlash imkonyatlari.

Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot.

Internetning paydo bo'lishi tarixi 60-yillarning oxirida Amerika hukumati tomonidan asos solingan ARPANet (Advanced Research Projects Agency tashkiloti) hisoblash tarmog'iga borib taqaladi. Tarmoq harbiy tashkilotlarga xizmat qilgan.

1980 yillar boshlarida ma'lumotlarni uzatishni boshqarish protokoli TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol) ga asos solindi. Taxminan shu vaqtda ma'lum bo'ldiki, TCP/IP dan turli milliy va xalqaro darajadagi kompyuter tarmoqlarini bog'lashda foydalanish mumkin.

1989 yilning oxirida ARPANet mukammal holga yetib keldi, lekin bu vaqtga kelib ko'pgina univetsitetlar va ilmiy muassasalar Internetga ulangan edilar. 1990

yillar boshlarida korporatsiyalar ham Internetdan elektron pochta orqali ma'lumotlar almashishda aktiv ishtirok etardilar. U vaqtlarda Milliy Ilmiy fond tijorat maqsadida Internetdan foydalanishni ta'qiqlagan edi. 1991 yilda bu cheklash bekor qilinadi va Internetdan tashkilot, muassasa, nohukumat tashkilotlarining foydalanish darajasi ortdi, shuningdek, tijorat maqsadida Internetdan keng foydalanila boshlandi (Internet magazinlar, Internet reklamalar va h.k.). **HTML – nima?** Gipermatnlar tili (HTML) web-brauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi. HTML dan foydalanib o'zida tahrirlangan matn, tasvir, multimediya elementlarini aks ettirgan web-sahifalarni yaratish mumkin.

HTML ning asosiy teglari

HTML ning konstruksiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa <html> tegi bilan boshlanib </html> tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoq quyidagi «<- - » va «<- ->» belgilar orsiga yoziladi.

Web-sahifa ko'rinishi va aks ettirilayotgan axborotning qanaqaligidan qat'iy nazar, HTML va WWW spetsifikatsiyasiga asosan har bir Web-sahifada ishtirok etishi zarur bo'lgan quyidagi to'rtta teglar mavjud:

1. <HTML> brauzerga hujjat HTML tilida yozilganligi to'g'risida xabar beradi.
2. <HEAD> HTML-hujjatning kirish va bosh qismini belgilaydi.
3. <BODY> asosiy matn va axborotni belgilaydi.

4. <ADDRESS> bu Web-sahifa to'g'risida ko'proq to'la-to'kis axborot olish uchun kerak bo'ladigan elektron pochta manziliga ega.

Bu teglar Web-brauzerga HTML-hujjatning har xil qismlarini aniqlash uchun juda zarurdir, lekin ular Web-sahifaning tashqi ko'rinishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi. Ular HTMLga kiritilgan navbatdagi yangi ma'lumotlar uy sahifalarida to'g'ri sharhlash, shu bilan birga barcha Web-brauzerlarda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi uchun juda zarurdir. Masalan, sizning Web-serveringizda barcha HTML-hujjatlarni ko'radigan va ularning ro'yxatini tuzadigan dastur ishga tushirilgan. U <HEAD> teglari ichida joylashgan matnlarni ko'radi, xolos (bu erda hujjatlar nomi ham joylashtirilgan bo'ladi). Shunday qilib, agar uy sahifalarida <HEAD> va </HEAD> teglari bo'lmasa, u holda u ro'xatga kiritilmaydi. Anchagina nomi chiqqan Web-serverlar-qidiruv vositalarining ko'pchiligi mana shunday ishlaydi. Ular axborotlarni <HEAD> teglaridan oladi.

<HTML> va </HTML> teglari

Bu teglar brauzerlarga ular orasidagi matnni xuddi HTML matni kabi sharxlash (izohlash) zarurligi to'g'risida xabar beradi, chunki HTML-hujjatlari faqat matnlidir. <HTML> teg esa, faylning gipermatn bog'lanish tilida yozilganligini gapirib turadi.

<HEAD> va </HEAD> teglari

Ular Web-sahifalar nomlarini belgilaydi. Buning uchun <HEAD> va

</HEAD> teglar orasida Web-sahifa nomi kiritiladi. Har bir HTML-hujjat faqatgina bitta nomga ega bo'ladi. So'ngra uning oldi va orqa tomonlarini <TITLE> va </TITLE> teglari bilan belgilang.

U, odatda brauzer darchasi sarlavhasida ko'rsatiladi. Konteyner <TITLE> tegini hujjat faylining nomi bilan adashtirmaslik kerak. Aksincha u fayl nomi va manziliga butunlay bog'liq bo'lmagan matn satridir. Fayl nomi kompyuterning operatsion tizimi (OT) orqali qat'iy ravishda aniqlanadi. Shu bilan birga, hujjatlar nomi (teg <TITLE> bilan birga)ni hujjat ichidagi Ko'pincha <H> teglari bilan joylashadigan sarlavhalardan farqlash kerak bo'ladi.

<BODY> va </BODY> teglari

<BODY> va </BODY> teglari <HEAD> kabi HTML-hujjatning maxsus qismlarini belgilashda ishlatiladi. <BODY> teglari egallab olgan matn hujjatning asosiy qismi hisoblanadi. Matnning katta qismi va boshqa axborotlar ham uning tarkibiga kiritiladi.

<ADDRESS> va </ADDRESS> teglari

Bu teglar mazkur sahifaga nisbatan kimdadir savol yoki fikr tug'ilib holgan taqdirda kimga murojaat qilish kerakligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

<ADDRESS> teglari bu axborotlarni asosiy blokdan ajratib olish uchun ishlatiladi. Uy sahifasiga bu teglarni kiritish uchun quyidagi qadamlarni bajaring:

1. <BODY> va </BODY> teglari orasida ismingizni va elektron pochta

adresini tering.

2. So'ngra ismingiz va adresingizga <ADDRESS> tegini kiriting.

3. Ism(nom) va adresdan so'ng, yopuvchi </ADDRESS> tegni kiriting.

Endi Web-sahifa (misol tariqasida) ni ko'rib chiqamiz:

```
<HTML>
```

```
<HEAD>
```

```
<TITLE> Web-sahifa misoli </TITLE>
```

```
</HEAD>
```

```
<BODY>
```

```
<H1> bizning Web-sahifamiz </H1>
```

<P> bu Web-sahifa Web-dizayner bo'lishi mumkinligini namoyish qilish maqsadida yaratilgandir. Buning uchun Web-serverga sozlanishi qiyin dastur talab qilinmaydi. Bunda sizning operatsion tizimingiz muvaffaqiyat bilan uning o'rnini bosaoladi.

```
<P>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

Bu erda terminologiya to'g'risida biroz oldindan kelishib olishimiz kerak. HTML-hujjatda xato bo'lsa, lekin baribir brauzer tomonidan chidab bo'larli darajada ko'rsatilsa, bunday hujjatni yaxshi rasmiylashtirilgan hujjat deyiladi. Aksincha, rasmiylashtirishda xatosi bo'lmagan HTML-hujjat standart hujjat deyiladi.

Birinchi (kichik) sektsiya-bu HTML-sarlavha. HTML-sarlavha juft teglar-

<HEAD> va </HEAD> bilan ajralib turadi. U brauzer darchasida aks etmaydi,

lekin brauzer o'z e'tiyohlari uchun foydalanadigan xizmat axborotlarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi (katta) sektsiya-bu hujjat jismi deb ataladigan shaxsiy hujjat.

Xuddi mana shu hujjat jismi brauzer darchasida aks ettiriladi. Jism juft teglar-`<BODY>` va `</BODY>` bilan ajralib turadi. Bu erdan standart HTML-hujjatlarni rasmiylashtirishning ikkinchi qoidasi kelib chiqadi: har bir hujjatda HTML-sarlavha va test ssilkalari bo'lishi va bu ikkala sektsiyalar to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lishli shart.

`<BODY>` tegida matn va fan rangi to'g'risidagi axborot mavjud bo'lishi mumkin. Buning uchun chap teg formatini ozgina o'zgartirish kerak bo'ladi.

Masalan: `<BODY BGCOLOR «FFFFOO» TEXT q «OOOOOO»>`.

Freymlar va formalar.

Formaning sintaksis ko'rinishi

hamma formalar `<FORM>` tegi bilan boshlanib `</FORM>` tegi bilan tugaydi.

`<FORM METHOD="get|post" ACTION="URL">`

Forma_Elementlari_va_boshqa_HTML_elementlari `</FORM>`

METHOD :Forma ma'lumotlarni yuborish metodi. Ikki usul orqali ma'lumotni yuborish mumkin:

· GET: formaning sarlavha qismiga ko'rsatilgan URL ni oxiriga forma ma'lumot-lari qo'shiladi. Sizning CGI-dasturingiz (CGI-skript) formaning ma'lumotlarini QUERY_STRING ni parametrlariidan oladi. GET medodidan foydalanishni maslahat bermaymiz.

- **POST:** formaning sarlavha qismiga ko'rsatilgan URL ga barcha ma'lumotlarni darhol yuboradi (ko'rinmas holatida). Sizning CGI-dasturingiz forma ma'lumotlarni, standart

ma'lumotlar oqimidan oladi.

ACTION :ACTION formani ma'lumotlarini qaysi URL adresiga yuborishni ko'rsatadi.

Forma teglari

TEXTAREA

Foydalanuvchi ko'p satrli ma'lumot kiritishi uchun <TEXTAREA> tegidan foydalaniladi (oddiy matn). <TEXTAREA> tegdan foydalanishga misol:

```
<TEXTAREA NAME="address" ROWS=10 COLS=50>
```

o'zbekiston,

Q Murtazoev ko'chasi,

11 uy.

```
</TEXTAREA>
```

<TEXTAREA> ichida ishlatiladigan atributlar. Tashqi ko'rinishi va nomi berilgan. Teg </TEXTAREA>atributlarsiz ham foydalanish mumkin:

- **NAME** - ma'lumot kirituvchi ob'ekt (maydon) ni nomi.
- **ROWS** - ma'lumot kirituvchi ob'ektni balandligi (belgilarga necha satrli).
- **COLS** - ma'lumot kirituvchi ob'ektni kengligi (belgilarga necha belgili).

Agar siz ma'lumot kirituvchi ob'ekt (maydon) ichida o'zi bilan birga ma'lumot chiqishini xoxlasangiz, unda <TEXTAREA> va </TEXTAREA> orasiga joylashtiring.

INPUT

<INPUT> tegi bir satrli yoki bir so'zli ma'lumot kiritish uchun ishlatiladi. Teg atributlari:

- CHECKED - tanglagich CHECKBOX yoki RADIOBUTTON ni tanlanganligini bildiradi.

Freymlarning aniqlanishi. Freymli strukturalarning berilishi (<FRAMESET>, <NOFRAMES> teglari). Freym atributlari.

Bizga ma'lumki bir vaqtning o'zida brauzer oynasiga ikkita HTML hujjatni yuklay olmaymiz. Agar biz ishlatayotgan Web sahifalarimizning barchasida bir xil menyu bandlari mavjud bo'lsa har safar Web sahifani yuklaganimizda bir xil ma'lumotni qayta-qayta yuklashga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar uncha katta bo'lmasligi mumkin, lekin uni yuklash ma'lum bir sekundlarni oladi. Shuning uchun Web sahifalarning o'zgarmaydigan elementlarini har safar yuklamasdan o'zgarishsiz qoldirish kerak. Bu muammolarni echish imkoniyatlari bor. Biz bitta oynani bir nechta to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lib ularning har biriga bitta HTML hujjat yuklashimiz mumkin. Bu to'g'ri to'rtburchak sohalarni biz freymlar deb ataymiz. HTML da freymlarning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular oddiy va suriluvchi freymlardir. Freymli strukturaga ega bo'lgan hujjatlar <frameset> va </frameset> teglari yordamida yaratiladi. Bu ikki teg orasida hosil qilinayotgan alohida freymlarga oid ma'lumotlar e'lon qilinadi. Alohida freymlar <frame> va </frame> teglar yordamida yaratiladi. Agar sizning brauzeringiz freymlarni tushunmasa u holda ekranda <noframes> va </noframes> teglari orasida yozilgan ma'lumot tasvirlanadi.

<frameset> tegining asosiy vazifasi brauzer oynasini bir nechta bo'laklarga bo'lish. Buning uchun asosan vertikal va gorizantal bo'yicha freymlar o'lchami va soninii ko'rsatib turuvchi rows va cols parametrlari ishlatiladi.

§ cols parametri brauzer oynasida gorizantal bo'yicha freymlar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametr qiymati sifatida vergullar bilan ajratilgan freymlar o'lchamlari ro'yxati keltiriladi. O'lchamlar odatdagidek sonlarda yoki protsentlarda beriladi. Jimlik bo'yicha 100% qiymat ishlatiladi.

rows parametri brauzer oynasida vertikal bo'yicha freymlar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametrqa qiymat berish cols parametri bilan bir xil bo'ladi.

Мисол: 9_1

```
<html>
```

```
<head><title>Фреймлар</title></head>
```

```
<frameset cols="150,*">
```

```
<frame src="9_1_1.htm">
```


```
<frame src="9_1_2.htm">
```

```
<noframes><p> afsuski sizning brauzeringiz freymlarni tushunmaydi.Brauzerning yangi versiyalaridan foydalaning </p>
```

```
</noframes>
```

```
</frameset>
```

```
</html>
```



Uzoq vaqtlar web-sahifalar yaratuvchilari butun sayt hattoki portal sahifalari bo'ylab harakatning umumiy sistemasini topishga harakat qildilar. Standart instimentariyni qo'llash uchun bir xil menyuni har bir sahifaga nusxasini qo'yishga to'g'ri kelardi. HTML Frames spetsifikatsiyasini rivojlanishi natijasida brauzer oynasini bir nechta oynalarga ajratib, ularga bir-biridan mustaqil sahifalarni qo'yish imkoniyati paydo bo'ldi.

Freymlar kirib kelishi bilan bog'liq eng asosiy muammo har doimdagidek brauzerlarning o'zaro tug'ri kelmasligi bo'ldi. Ko'pgina brauzerlar freymlarni «tanimasdi». Freymlar spetsifikatsiyasi HTML standartlariga 1997 yilda yaratilgan HTML 3.2 versiyasidan boshlab qo'llanila boshlandi. U vaqtlarda freymlar Nestcape foydalanuvchilari orasida ommaviylashgan edi. HTML 4.0 dan boshlab brauzerlar freymlarni normal «tushuna» boshladilar.

Freymlar bitta brauzer oynasiga bir nechta turli URL adreslarga ega bo'lgan mustaqil web-sahifalarni yuklash imkoniyatini beradi. Bu vazifani bajarish juda oddiy. Buning uchun **<body>** elementi **<frameset>** elementi bilan almashtiriladi. Bu konteynor sahifada freymlar hosil kiluvchi **<frame />** elementi uchun mo'ljallangan. Freymlar ichida qaysi freymga chiqishi ko'rsatilgan alohida gipermurojaatlar bo'lishi mumkin.

Demak sahifada freymlar hosil qilish uchun ikkita **<frameset>** va **<frame />** elementlari ishlatilar ekan:

<html>

<head>

</head>

<frameset>

</frameset>

</html>

<frameset> elementi ikkita **cols** va **rows** atributlariga ega. Ular yordamida <frameset> sahifalarni bir nechta qatorlar yoki ustunlardan iborat freymlarga ajratadi:

<frameset cols= “25%, 75%”>

</frameset>

Natijada web-sahifa ikkita ustunli freymga ajraydi.

<frameset> elementi yordamida sahifada hohlagancha ustun va qator freymlarini hosil qilish mumkin. Ularning o'lchamini doim ham protsentlarda ifodalash shart emas. O'lchov birligi sifatida piksellarni ham olish mumkin :

<frameset rows= “10, 200, 300, 100”>

Natijada to'rtta qator freymlari hosil bo'ladi.

Bundan tashqari o'lchamlarni ifodalashda «*» ni ham ishlatish mumkin. Bunda «*» ga qancha o'lcham qolsa hammasi tegishli bo'ladi:

<frameset cols= “200, 300, *”>

Protsentlarda ifodalangan o'lchamlar uchun ham «*» ni ishlatish mumkin:

<frameset rows= “25%, 35%, *”>

<frameset> konteynori bir o'zi hech narsa qila olmaydi. Ekranda freymlar hosil bo'lishi uchun <frame /> va <noframes> elementlari ishlatilishi kerak. Birinchisi ekranda freymlar hosil bo'lishi uchun ishlatilasa, ikkinchisi aksincha freymlarni olib tashlash uchun ishlatiladi:

<frameset>

<noframes>

<p> Uzoq vaqtlar web-sahifalar yaratuvchilari butun sayt hattoki portal sahifalari bo'ylab harakatning umumiy sistemasini topishga harakat qildilar. Standart

instimentariyni qo'llash uchun bir xil menyuni har bir sahifaga nusxasini qo'yishga to'g'ri kelardi. HTML Frames spetsifikatsiyasini rivojlanishi natijasida brauzer oynasini bir nechta oynalarga ajratib, ularga bir-biridan mustaqil sahifalarni qo'yish imkoniyati paydo bo'ldi.</p>

</noframes>

</frameset>

<noframes> elementi yordamida umuman freymalarsiz sahifa yaratish ham mumkin.

<frame /> elementiga misol:

<frameset>

<frame src= "index.html" />

<frame src= "viewer.html" />

</frameset>

<frame /> elementi yordamida biror bir freymga itiyoriy web-sahifani chaqirish uchun ishlatiladi. Sahifaning URL adresi **src** atributi yordamida beriladi. Adreslar gipermurojaatlardagidek to'liq yoki qisqartirilgan holda berilishi mumkin.

Biror bir freym'larga yangi sahifalarning yuklanishi ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

- ❖ Birinchidan, freymga aniq nom berilishi kerak;
- ❖ Ikkinchidan, ko'rsatilgan freymga yuklanishi uchun yuqorida berilgan nomdan foydalanish kerak.

Masalan:

<frameset>

<frame src= "index.html" />

```
<frame src= "viewer.html" name= "doc_viewer">
```

```
</frameset>
```

Birinchi freym nomlanmadi, chunki unga yangi web-sahifa yuklanishi shart emas. Ikkinchi freymga yangi web-sahifani yuklash uchun odatdagi **<a>** elementining **target** atributi ishlatiladi:

```
<a href= "story.html" target= "doc_viewer">Тарих</a>
```

Endi chap tomondagi gipermurojaat natijasi yangi oynaga emas, o'ng tomondagi freymga chiqadi. **<a>** elementiga ixtiyoriy URL adresni qo'yish mumkin:

```
<a href= http://www.yandex.ru target= "doc_viewer">Yandex qidiruv sistemasi </a>
```

<frame /> elementi quyidagi parametrlarga ega:

- ❖ **Noresize**. Freymlar o'lchamini o'zgartirishni man qiladi.
- ❖ **Frameborder**. Faqat 1 yoki 0 qiymatlardan bittasini qabul qiladi. Agar 1 qiymatni qabul qilsa, freym chegarasi majud, 0 qiymat qabul qilsa, freym chegarasi yo'q.
- ❖ **Scrolling**. **yes**, **no** yoki **auto** qiymatlaridan faqat bittasini qabul qila oladi. **Yes** – prokrutka bor, **no** – prokturka yo'q, **auto** – agar ehtiyoj bo'lsagina prokrutka quyiladi.
- ❖ **marginwidth**, **marginheight** – bu atributlar gorizontal va vertikal maydonlarga mo'ljallangan.
- ❖ **Longdesc**. Mazkur freym haqidagi ma'lumotlar saqlanuvchi URL adresni o'zida saqlaydi.

Ichma-ich freymlar. Agar ekranda gorizontal va vertikal freymlarni birdaniga hosil qilmoqchi bo'lsak, ichma-ich freymlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan tepada to'liq satrli freym, uning pastida ikki ustunga ajratilgan freymlarni hosil qilaylik. Buning uchun ikki ishni qilish kerak. Birinchidan bizga ikki qatorli freym kerak bo'ladi. Ikkinchidan ikkinchi qator freymni ikki ustunga ajratish kerak:

```
<frameset rows= "100, *">
```

```
<frame src= "banner.html" scrolling= "no" noresize = "noresize" />
```

```
<frameset cols= "25%, 75%">
```

```
<frame src= "index.html" />
```

```
<frame src= "viewer.html" marginwidth= "5" marginheight= "5"/>
```

```
</frameset>
```

Freymlarni yuqorida keltirilganlardan boshqa qo'shimcha imkoniyatlari ham mavjud. Masalan, biror freymga sahifani yuklash yoki freymlarni yangi oynaga ochish.

Target atributi quyidagi qabul qilishi mumkin:

- ❖ **_self**. Murojaat qo'yilgan freym o'zida hujjat ochilishini ta'minlaydi.
- ❖ **_top**. Bu qiymatni qo'llab, shu oynaning o'zida freymlarni o'chirib hujjatni yuklash mumkin.
- ❖ **_blank**. Hujjatni yangi oynada ochilishini ta'minlaydi.

<iframe> elementi <frame /> elementi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan, lekin <frameset> elementiga umuman aloqasi yo'q. <iframe> elementi HTML hujjatda ichki mustaqil freymlar yaratish imkoniyatini beradi. <iframe> elementi ixtiyoriy sahifada <body> ning ichiga joylashishi mumkin. Uning vazifasi sahifada boshqa bir hujjatni <frame /> <frameset> da ko'rsatgani kabi ko'rsatishdir.

Misol:

```
<iframe      src="jad.html"      width="300"      height="300"      frameborder="0"
scrolling="auto">
```

Mana sizga freym!!!

```
</iframe>
```

<iframe> elementi <frame /> elementining **frameborder**, **marginwidth**, **marginheight**, **scrolling** kabi hamma atributlarini qabul qilishi mumkin. Bulardan


tashqari uning **width** va **height** atributlari ham mavjudki, ular qo'yilayotgan freymning bo'yi va eni o'lchamlarini piksellarda belgilaydi. Yana <iframe> elementi align atributiga ega bo'lib, u odatdagidek, **right** va **left** qiymatlar qabul qiladi. <iframe> elementining yana bir xususiyati shundaki u o'z ichiga olgan matnni qachonki foydalanuvchi brauzeri ichki freymnlarni qo'llamasagina ekranga chiqaradi.

Dream Viewer dasturi haqida qiqacha.

Дастурнинг ишчи соҳаси.

Dreamweaver MX dasturini ishga tuшириш uchun куйидаги кадамларни бажариш керак: **Пуск > Программы > Macromedia > Macromedia Dreamweaver MX.**

Дастурнинг ишчи соҳасини ҳар қандай фойдаланувчи дидига ва тажрибасига мос равишда созлаб олиши мумкин.



Расм. 1. Dreamweaver MX дастурининг интерфейси.

Ishchi sopaning asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar hisoblanadi:

- Hujjat oynasi - tahrirlanayotgan hujjatni krsatadi.
- Ob'ekt palitrasi (Insert) - turli xil tipdagi ob'ektlarni (rasmlar, jadvallar, maxsus simvollar va boshalar) sahifada tezda joylashtirish uchun

xizmat qiladigan tugmalarga ega;

- Xususiyatlar palitrasi (Properties) - belgilangan matn yoki ob'ekt xususiyatlarini ko'rsatadi va ularni tahrirlash imkonini beradi.
- O'zgaruvchan palitralar (Floating Palettes)- oynalar, inspektorlar va palitralarni umumiy bloka birlashtirish uchun xizmat qiladi.

HTML-sahifa tuzilishi.

HTML sahifada hujjat sarlavhasi (Head) va tanasini (Body) ajratib ko'rsatish mumkin. Sarlavhada, asosan sahifa to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi va ularning ko'pchiligi Web-sahifa ko'rinishiga ta'sir qilmaydi. Sarlavhadan tashqari barcha ma'lumotlar sahifa tanasida joylashtiriladi va ekranda ko'rinadi.

Sahifa sarlavhasi va tanasi aniq ketma-ketlikda joylashtiriladigan maxsus teglar bilan aniqlanadi.

Sahifaning HTML-kod tuzilishi.

```
< HTML>
```

```
< Head >
```

Sahifaning sarlavha bo'limi. Bu erda ishchi ma'lumotlar teglari joylashtiriladi.

```
</ Head >
```

```
< Body>
```

Bu erda joylashtirilgan barcha ma'lumotlar Web-sahifada akslantiriladi.

```
</ Body>
```

```
</ HTML>
```

Tuzilishi jihatdan to'ri HTML-kod < HTML> tegdan boshlanadi. Ochilgan < Head > tegi va yopilgan < /Head > tegi sarlavha bo'limini tashkil etadi. Sarlavha tarkibiga hujjat haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi. HTML-faylning asosiy qismi hujjat tanasidir va u < Body> va < / Body> teglari yordamida tashkil etiladi. Bu teglar orasida brauzer oynasida ko'rsatiladigan barcha ma'lumotlar joylashtiriladi. HTML-kod yopiladigan < / HTML> teg orqali tugallanadi.

Teglardan foydalanish vaqtida quyidagi qoidalariga rioya qilish kerak:

- Barcha standart teglar «<» simvolidan boshlanadi va «>» simvoli bilan tugaydi. (Masalan, <HTML>)
- Teg nomini tashkil etuvchi simvollar orasida bo'sh joylar (probel) qo'yish mumkin emas. Shuningdek, teg nomi va belgilar orasida ham bo'sh joy qo'yish tavsiya etilmaydi.
- Xar qaysi ochiladigan teg uchun mos ravishda yopiladigan teg ham bo'lishi kerak. Yopiladigan teg bilan ochiladigan teg o'rtasidagi farq uning nomi oldidagi «/» belgisi hisoblanadi. (</HTML>).
- HTML-kodni yaratishda teg nomi uchun faqat quyi registrdagi simvollarini ishlatish.
- Teglarini ajratish uchun, shuningdek birinchi atributni teg nomidan ajratishda bo'sh joy ishlatiladi. Atribut qiymati tarkibidagi bo'sh joylar ham xatoliklarga olib kelishi mumkin.
- HTML-hujjat tuzilishiga e'tibor bering. Asosiy teglarni to'g'ri tartibda va qat'iy ierarxiyada joylashtiring.

Dream viewer dasturida freymlar bilan ishlash.

Web-saytning freym tuzilishi

Odatda Web-sahifa birta hujjat hisoblanib, brouzer ishchi oynasida tasvirlanadi va bu oynani tulik egallaydi. Lekin HTML zamonaviy standarti ishchi oynani bir necha mustakil zonalar (freymlar) ga ajratish imkonini beradi. Ularning har birida o'zining Web-sahifasi tasvirlanadi.

Masalan, ekranda 3 ta freymni joylashtirish mumkin: yuqorida - sahifa sarlavhasi tasvirlangan gorizontali bo'lim, chapda - «tugmali menyu»li vertikal bo'lim, bunda har bir tugma qism sahifaga murojaat hisoblanadi, brouzer oynasining kolgan qismi esa Web-sahifaning asosiy qismi hisoblanib, boshqa freymdagi ishlatilgan murojaatlarga qarab uning tarkibi o'zgaradi. Bundan tashqari, asosiy qismdagi ma'lumotlar ekranga sig'masa, ma'lumotlarni ko'rish uchun sichqoncha yoki Page Up, Page Down tugmalaridan foydalanamiz.

HTML da freym tuzilishini yaratish

Freymlardan foydalangan holda hujjat yaratish uchun oynani qismlarga bo'lish usulini o'rnatuvchi ko'rsatmalarni o'zida saqlaydigan boshqaruvchi HTML hujjat yaratish kerak.

Boshqaruvchi hujjatda freymda ko'rsatilishi kerak bo'lgan HTML hujjatlar haqida ma'lumot ko'rsatiladi. Rasmda ko'rsatilgan Web-sahifani hosil qilish uchun 4 ta HTML hujjat zarur bo'ladi: boshqaruvchi hujjat va har qaysi freym uchun alohida hujjatlar. Brauzer oynasini freymlarga bo'lish va ularda aks ettirish uchun mo'ljallangan hujjatlarni ko'rsatish uchun quyidagi teglardan foydalanamiz.

`<frameset>` - Web-sahifa tuzilishini aniqlash; uning atributlari qator va ustun sonlari bilan beriladi.


`<frameset>` tegi uchun mos yopiluvchi `</frameset>` tegi mavjud.

Freymli Web-sahifani shakllantirishda boshqaruvchi hujjatda `<frameset>` tegi `<body>` tegi o'rnida ishlatiladi.

`<frame>` - Web-sahifa tarkibidagi biror bir freym tarkibini ko'rsatadi. Uning tarkibida `src` "x" atributi saqlanadi. Bunda x - HTML hujjatning nisbiy yoki absolyut manzili.

`<noframes>` - ushbu tegda ko'rsatilgan ma'lumotlar brauzer freymnlarni ko'rsata olmagan taqdirda ekranga chiqadi. Ushbu tegda atributlar mavjud emas.

Dreamweaverda freymnlarni yaratish



Dreamweaverda taklif qilinayotgan freymnlarning standart to'plami sizga zarur sahifa tuzilmasini tashkil qilishga yordam beradi. Ob'ektlar panelining Frames (Freymlar) bo'limida

freymmlarning standart to'plami tugmalari joylashgan.

Tanlangan to'plam joriy hujjatni kamrab oladi, ya'ni, o'sha vaqt kirish nuqtasi joylashgan hujjat. Freymmlar standart to'plami belgisining xavorang sohasi ayni paytda belgilangan sahifani yoki hujjatdagi freymni, ok soha esa - yangi freym yoki freymmlarni bildiradi.

Freymmlarning standart to'plami o'rnatish uchun:

1. To'plamga kiritmokchi bo'lgan hujjatga kiritish nuqtasini joylashtiring.
2. Panellar ob'ektining Frames bo'limidan freymmlarning standart to'plamini tanlang. To'plamga kiritish uchun uning tugmasini bosishingiz yoki tugmani hujjatga o'tkazishingiz mumkin.

Freymmlar va freymmlar to'plami HTML ning alohida hujjatlari hisoblanadi. Freymmlarni o'zgartirish uchun uni belgilash lozim. Buni hujjat oynasida yoki Frames palitrasi yordamida qilishingiz mumkin.

Freymmlar yoki freymmlar to'plamini belgilayotgan paytda Frames palitrasi va hujjat oynasida belgilash chiziqlari paydo bo'ladi.

Frames palitrasi xayolan hujjatning freymmlarini tasvirlaydi. Frames palitrasidan freymmlar yoki freymmlar to'plamini tanlashingiz, so'ngra uni ko'rish yoki Properties (Xusiyatlar) palitrasida belgilangan element xususiyatlarini qayta tahrirlashingiz mumkin.

Frames palitrasi freymmlar to'plami ierarxiasini ko'rsatib turadi. Frames palitrasida freymmlar to'plamini kalin 3 o'lchamli chegara o'rab oladi, Freymmlar esa mayin kulrang chiziq bilan uralgan, har bir freym esa o'z ismiga ega.

Frames palitrasini kurish uchun Window (Oyna) menyusidan Frames punktini tanlang.


Frames palitrasida alohida freymni tanlash uchun shu palitrada ramkani bosing.

Frames palitrasida freymlar to'plamini tanlash uchun, Frames palitrasida freymlarni urab olgan chegarani bosing.

Freym xususiyatlarini sozlash

Properties (Xususiyatlar) palitrasi aloqida freymning xususiyatlarini o'rnatish yoki o'zgartirish uchun foydalaniladi. Freym xususiyatlarni ko'rish uchun,

Properties (Xususiyatlar) palitrasining pastki burchagidagi yunalishli tugmani bosing.



Freym xususiyatlarini aniqlash uchun:

1. Frames palitrasidan freymni tanlang.
2. Xususiyatlar palitrasining Frame Name (Freym nomi) maydonida freymga nom bering.
3. Quyidagi sozlashlarni o'rning:

-Src maydonida mana shu freymda boshidan tasvirlanadigan sahifa faylini tanlang. Faylni topish va belgilash uchun fayl nomini kiriting yoki papka belgisini bosing.

-Joriy freym tarkibini tasvirlashda muhit etishmasa, Scroll ro'yxati aylantirgich chizigining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ko'pgina brauzerlar Auto sozlashidan foydalanishadi.

-No Resize bayroq joriy freym o'lchamlarini chegaralaydi va foydalanuvchiga uning chegaralarini o'zgartirishni ma'n qiladi. Siz har doim hujjat oynasida freym o'lchamlarini o'zgartirishingiz mumkin. Biroq, bu sozlash o'rnatilgan bo'lsa, foydalanuvchi brauzerda freym o'lchamlarini o'zgartira olmaydi.

-Borders ro'yxati joriy freym ramkasi tasvirini boshqaradi. Mumkin bo'lgan sozlashlar: Yes, No, Default. Bu xususiyat freym to'plami uchun aniqlangan ramka xossalarni o'zgartiradi. Ko'pgina brauzerlar avtomatik tarzda Yes ni ishlatadi.

-Border Color maydoni joriy freymning hamma ramkalari uchun rangni o'rnatadi. Bu sozlash freymlar to'plami ramkasining rangining o'rnini bosadi.


-Margin Width maydoni chap va o'ng maydonlarning kengligini piksellarda o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shliq).

- Margin Height maydoni pastki va yuqori maydon balandligini o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shliq).

Freymlar to'plami xususiyati

Freymlar to'plami xususiyatlarini kurish uchun:

1. Frames palitrasida freymnlarni kamrab oladigan chegarani bosong.
- 2.Freymlar to'plamining hamma xususiyatlarini kurish uchun Properties (Xususiyatlar) palitrasining pastki o'ng burchagidagi yunalishli tugmani bosong.



Freymlar to'plamining xususiyatini aniqlash uchun:

1. Freymlar to'plamini tanlang.
- 2.Borders (Ramkalar) ro'yxatida hujjatni brauzerda kurish vaqtida freym ramkalarni tasvirlash mumkinmi yoki yo'qligini ko'rsating.

quyidagilarni o'rnatang:

-Yes, ramkalar tasvirlanadi.

- No, ramkalar tasvirlanmaydi.

- Default, foydalanuvchi brauzeri ramkalar tasvirlanishini o'zi tanlaydi.


3. Border Width (Ramka kengligi) maydoniga joriy freymlar to'plami ramkalarining kengligini kiriting.

4. Border Color (Ramka rangi) maydoniga 16 lik ranglarni kiriting yoki ochiladigan palitrada ramkaning rangini tanlang.

5. Freym o'lchamini belgilash uchun Row Col Selection (qatorni=ustunni belgilash) sohasini bosing (qatorni tanlash uchun) yoki yuqori qismdagi ilovani bosing (ustunni tanlash uchun). So'ngra Value (qiymat) maydonida belgilangan qator yoki ustunning qiymatini kiriting. Units (o'lchov birligi) ochiladigan ro'yxatida esa Value (qiymat) maydonidagi qiymat uchun o'lchov birligini o'rnatish.

Freym o'lchamlarini aniqlash

Freym chegaralarini, uning taxminiy o'lchamlarini o'rnatish uchun hujjat oynasiga keltiring. So'ngra freymning brauzerdagi nisbiy o'lchamini foizlarda aniqlash uchun Properties (Xususiyatlar) palitrasidan foydalaning.



Freym o'lchamlarini aniqlash uchun:

1. Freymlar to'plamini tanlash uchun freym chegarasini bosing. Agar chegaralar kurinmas bo'lsa, View menyusidan Visual Aids> Frame Borders punktlarini tanlang.

2. Barcha xususiyatlarni kurish uchun Properties (Xususiyatlar) palitrasida yunalishli tugmani bosing.

3. Row Col Selection sohasida siz o'zgartirmokchi bo'lgan qator yoki tugmani bosing.

4. Brauzer oynasi o'lchami o'zgarganda, Value (qiymat) maydoniga muhit taksimoti qiymatini kiriting va u uchun quyidagi o'lchov birliklaridan birini tanlang:

-Pixels belgilangan qator yoki ustunning o'lchamlarini absolyut birliklarda ifodalaydi. Bu sozlash freym uchun eng yaxshi tanlovdir, chunki u doim bir xil o'lchamda bo'lishi kerak, masalan, harakatlanuvchan chizgich kabi. Agar siz freymlar uchun turli o'lchov birliklari o'rnatangiz, unda qolgan freymlar o'lchamlari piksellarda ko'rsatilgan freymlar ularni tula o'lchamga kiritgandan so'ng brauzerda joylashtiriladi.

-Percent shuni ko'rsatadiki, joriy freymning o'lchami freymlar to'plami o'lchamida necha foizni tashkil qilishini aniqlaydi. O'lchami foizlarda ko'rsatilgan freym o'lchami piksellarda ko'rsatilgan freymdan keyin joylashtiriladi.

-Relative freym o'lchamini boshqa freymlar o'lchamlariga proportsional ravishda aniqlaydi. O'lchami Relative orqali aniqlangan freymlar Pixels va Percent da o'lchangan freymlardan keyin joylashtiriladi va brauzer oynasidagi qolgan joyni egallaydi.

Murojaat yordamida freym tarkibini boshqarish

Murojaat orqali sahifa ochmokchi bo'lgan freymni tanlash uchun Properties (Xususiyatlar) palitrasida Target (Maqsad) ochiluvchi ro'yxatini tanlang.

Freymni ko'rsatish uchun:

1. Matn yoki ob'ektni belgilang.

2. Properties (Xususiyatlar) palitrasida Link maydonida papka belgisini bosing va murojaat o'rnatmokchi bo'lgan faylni tanlang.

3. Target (Maqsad) ro'yxatidan tanlangan fayl tarkibini kaerda tasvirlamokchi bo'lgan maqsadni tanlang.

-_blank brauzerning yangi oynasida bog'langan hujjat ochadi va joriy oynani ochik holda xotirada saqlaydi;

-_parent ona freymda bog'langan hujjat ochadi;

-_self joriy freymda, uning takibini o'zgartirgan holda hujjat ochadi;

-_top eng yuqori freymda hujjat ochadi;

Agar siz Properties (Xususiyatlar) inspektorida freymlarga nom kuygan bo'lsangiz, ular Target (Maqsad) ro'yxatida paydo bo'ladi. Freym nomini belgilaganda tanlangan freymda bog'langan hujjat ochiladi.

Freym va freymlar to'plamini xotirada saqlash

Brauzerda sahifani kurish uchun, freymlar to'plami fayli va ularga bog'liq bo'lgan freymlar fayllari oldindan xotirada saqlangan bo'lishi kerak. Siz freymlar to'plami va freymlarni alohida xotirada saqlashingiz yoki bu jarayonni alohida-alohida bajarishingiz mumkin.

Dreamveawer da freym yaratayotganda, har bir yangi hujjatga mos holda aniq nom bilan vaqtinchalik fayl qo'yiladi.

Xotirada saqlash sozlashining birini tanlaganingizda Save As (Soxranit kak...) muloqot oynasi paydo bo'ladi va hujjatni faylning vaqtinchalik nomi bilan

xotirada saqlashni taklif qiladi. har bir fayl "Untitled" vaqtinchalik nomiga ega bo'lganligi uchun xotirada saqlayotgan faylingizni identifikatsiya qilish qiyin bo'lsa kerak. Bunday holda qaysi fayl xotirada saqlanayotganini bilish uchun hujjat oynasida freym belgilanadigan chiziqqa karang, chunki Save As (Soxranit kak...) muloqot oynasi joriy vaqtda belgilangan freymni xotirada saqlaydi.

Freymlar to'plamini xotirada saqlash uchun:

- Freymilar to'plamini xotirada saqlash uchun File (Fayl) menyusidan Save Frameset (Soxranit nabor freymov) punktini tanlang.

- Freymilar to'plamini yangi faylda saqlash uchun File (Fayl) menyusidan Save Frameset As (Soxranit nabor freymov kak) punktini tanlang.

Ilova freymni xotirada saqlash uchun uni bosing, so'ngra File (Fayl) menyusidan Save Frame (Soxranit freym) punktini tanlang.

Barcha ochilgan hujjatlarni xotirada saqlash uchun File (Fayl) menyusidan Save All Frames (Soxranit vse freymo') punktini tanlang.

Front Page dasturining imkonyatlari.

Microsoft Front Page Web-uzelni dasturlashsiz tezda etkazish va unda professional ravishda tayyorlangan hujjatlarni nashr etish imkoniyatini beradigan maxsus vosita hisoblanadi. Front Page ilovasining interfeysi Offise interfeysiga o'xshash interfeysga ega HTML sahifasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan instrumentlar, shu jumladan uzoqdagi ko'p marta foydalanish rejimi va wysiwiw rejimi ham shunday. Front Page tarkibiga web-uzellarni va HTML sahifalarni interaktiv tadqiq qilishda ishlatiladigan master va shablonlar kiradi.

Front Page so'zi odatda, qandaydir saytning asosiy bosh sahifasini anglatadi va bu sahifalarni yaratuvchi dasturlar ham shu nom bilan ataladi. Dastur ishlashda juda oddiy, lekin juda ko'plab ishlarni bajarishga imkon beradi. Front Page saytlarning to'g'ri ko'rish xususiyatlarini ko'rib chiqish, grafika bilan bog'liq muammolarni, saytni har xil multimediyali to'ldirish variantlarini, sahifaning mazmunli qismi va uning yuklash tezligi orasidagi balansni topishga imkoniyat yaratib beradi. Front Pageda qaror va usullar to'plamini ko'rib chiqishdagi kundalik ishlarimiz ma'lumotlardan foydalanib, sanoat saytlarini bajarish mumkin. Shunday qilib, saytni korporativ ma'lumotlarni bezashga bog'lash va u bilan distantsion rejimda to'g'ri ish tashkil etish mumkin bo'ladi. Sayt yordamida mijozlar bilan mana shunday ishlar tashkil etilganda tashkilot xizmatchilari o'z ishlarini ofis tashqarisida ham bimalol bajarishlari mumkin bo'ladi. Elektron tijorat uchun ham saytlar yaratish ham uzluksiz axborotli

xavfsiz sayt vositalarini tashkil qilish mumkin. Bu ishlarning barchasi dasturlashsiz olib beriladi,.

MS Front Page 2000-bu WEB-saytlarni quvvatlab turuvchi kuchli sistemaning yangi versiyasi, (versiya 4.0)dir. U WEB uzelni yaratishdagi oddiyligi, Microsoft Office ning boshqa ilovalari bilan uzviy boglanish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi.

MS Front Page 2000ning MS Front Page 98ga nisbatan afzalligi:

Web-sahifa elementlarini aniq o'rnatuvchi yuqori darajali Web-uzellarni tez va professional tarzda yaratish, NTML fayllarini import qilish va tahrir qilish, Web-sahifalar yaratish bo'yicha yangi texnologiyalarni qo'llash mumkinligi;

Taxlangan qulay NTML-muharririning mavjudligi (foydalanishda eng qulay NTML-kod generatorli WYSIWIG muharriridan tashqari).

Ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilishning osonligi. Bu ma'lumotlar bazasiga bo'lgan talablar joylashuvini qo'llash jarayonida va ularni Web-sahifalarga taxlashda ifodalanadi. Bunda yaratilajak Web-sahifalarda axborotlarni yangilash imkoni paydo bo'ladi. Bu hodisa foydalanuvchi brauzer darchasini ochganda yoki ularni yangilaganda sodir bo'ladi.Uning to'g'ri ishlashiga ishonch hosil qiluvchi yaratilajak Web-uzelning hamma komponentlarining aks etishi. Bu Web-uzelni yangilash imkoniyatini yaratadi. Web-uzelni analiz qilish va yangilash yangi statistik hisobotlar evaziga ham soddalashadi. Odatda, ular tarkibiga fayllarining umumiy soni va razmeri, sekin yuklanadigan sahifalar, foydalanmagan fayllar va uzilgan giper bog'lanishlar to'g'risidagi axborotlar kiradi.Rutinli ishlarni avtomatik ravishda bajarish bu ob'ektlar nomini yoki joyi o'zgartirilganda sahifa va fayllardagi barcha havolalarni avtomatik tarzda tuzatish, berilgan kategoriyaga taalluqli barcha hujjatlarga havola (sso'lka)larni avtomatik tarzda joylash).Front Page 2000 da Front Page Explorer va Front Page Editor dasturlari bitta ilovaga birlashtirilgan. Frontpage 2000 15 tagacha tilni quvvatlaydi, Windows Installer Tehnologiydagi ilovalar instalyasining yangi texologiyasidan foydalanib, kompyuterga osongina joylasha oladi. Uning yordami bilan talabga binoan ish olib borish, serverdan yuklash va ilovaning mustaqil ravishda tiklanishi ta'minlanadi.Web-uzel yaratishda va uni

boshqarishda eng qulay instrumentlar bilan ta'minlab turilsada, Front Page Express versiyasi zamonaviyligi bo'yicha biroz orqada turadi.


Freymlar bilan ishlash.

Umuman olganda jadval ekran soxasini bir nechta bo'laklarga bo'lish imkonini beradi, lekin bu bo'laklar bitta yagona xujjatni tashkil etadi.

Freymlar xam brauzer ekranini jadval singari bo'laklarga bo'ladi. Freymning jadvaldan farqi shuki, tana qismga, ya'ni BODY tegiga ega bo'lmaydi.

Freymlar bilan ishlash MS FrontPage dasturida qanday amalga oshirilishini ko'rib o'tamiz.

MS FrontPage da freym tashkil qilish uchun menyular satridan **File -> New -> Page** ketma-ketlik bajariladi. Natijada 8-rasmda ko'rsatilgan muloqot oynasi ekranda xosil bo'ladi.



8-rasm. Freym tashkil qilish muloqot oynasi

Xosil bo'lgan muloqot oynadan Frames Page bo'limi tanlanadi. Oynaning chap qismidan

mavjud shablonlar ro'yxati keltirilgan. Oynaning o'ng-quyi qismida esa tanlangan shablonning ekran ko'rinishi beriladi. Kerakli shablon tanlanganidan keyin Ok tugmasi

bosiladi (biz «Banner and Contents» freym shablonini tanladik). Ekran ko'rinishi 9-rasmda

ko'rsatilgan xolatni oladi.


9-rasmga e'tibor beradigan bo'lsak ekranni uch bo'lakka bo'linganini ko'ramiz va xar bir

Bo'lakda ikkitadan tugma mavjud:

1. Set Initial Page...
2. New Page

Ekrandagi xar bir bo'lak aloxida web xujjat bo'lib xisoblanadi. Ya'ni xar bo'lakka avvaldan yaratilgan web xujjatni qo'yib qo'yish mumkin. Buning uchun Set Initial Page... tugmasidan foydalaniladi. Tugma bosilganidan keyin mavjud faylni ko'rsatish uchun muloqot

oynasi xosil bo'ladi va bu oynadan kerakli fayl tanlanadi.



9-rasm. Shablon tanlangandan keyingi ekran ko'rinishi

Agar avvaldan tayyorlangan fayl mavjud bo'lmasa, shu erning o'zida xam yangi xujjatni

tayyorlab olish mumkin. Bunday xolatda New Page tugmasi bosiladi va aynan shu bo'lakning

o'rnida yangi bo'sh saxifa xosil bo'ladi.

Freymli ekran kompyuter xotirasiga saqlanayotgan vaqtda shu erning o'zida xosil qilingan web xujjat uchun aloxida nom so'raydi. eng so'nggida esa umuman ekran ko'rinishi

qaysi nom bilan saqlanishi kerakligi so'raladi. ya'ni, ushbu so'nggi berilgan nom asosiy fayl sifatida olinadi.

Ekranning xar bo'lagining o'lchamlarini sichqoncha yordamida ixtiyoriy xolatda O'zgartirish mumkin.

Freymlarni tashkil qilishning MS FrontPage dasturidan tashqari yana HTML tilida xam tashkil qilish mumkin.

Buning uchun <FRAMESET>...</FRAMESET> tegidan foydalaniladi. Yuqorida aytib

o'tilganidek, freym bir paytda ekranga bir nechta Web saxifalarni yuklash imkonini beradi.

Freyimli xujjatga misol ko'rib o'taylik:

```
<html> <head>
```

```
<title> Main – document </title>
```

```
</head>
```

```
<FRAMESET COLS = “300,*”>
```

```
<FRAME SRC =”aaa.htm” name =”frame – a”>
```

```
<FRAMESET ROWS = “50%,*>
```

```
<FRAME SRC = “bbb.htm” name =”frame – b”>
```

```
<FRAME SRC = “ccc.htm” name =”frame – c”>
```

```
</FRAMESET>
```

```
</FRAMESET>
```

```
</html>
```

Birinchi `<frameset cols q "300,*">` tegi brauzer oynasini ikkita ustunga bo'ladi, ulardan

birinchisi 300 pikselga teng, ikkinchisining o'lchami esa (*) - ustunning qolganiga teng.

`<frame src q "aaa.htm" name q "frame - a">` tegida esa 1-freymga yuklanuvchi Web saxifaga

ishorat beriladi va bir va?tda shu freymga nom beriladi. Keyinchalik target q q"frame-a"

parametrli giperishorat berish bilan u erda boshqa saxifani yuklash mumkin.

Maslan, frame-a dan frame-b da o'zgaruvchi xujjatga ishorat qo'yish uchun frame-a ga

quyidagini keltirish mumkin:

`<a href = "eee.htm" target = "frame-b"> eee хужжат </a>`

`<a href = "uuu.htm" target = "frame-b"> uuu хужжат </a>`

Ikkinchi ustunni `<frameset rows q "50%,*">` tegi yordamida ikkita teng (50%) qatorga


Bo'lamiz. Agar, natijada ikkalasining yig'indisi 100% ga teng bo'lmasa, u xolda brauzerning

o'zi freymlarni proporsional qilib beradi.

quyidagi ikkita teg xosil qilingan bo'laklarning xar biriga navbati bilan nom va URL ni beradi.


Masala:

Front Page dasturida freymlardan foydalaning. Bu uchun **Fayl –sozdat-Drugiy sh**




shablon stranisani tanlaymiz. Bunda **Shablon stranisa** oynasi ochiladi.

Bu oynadan Stranisa Ramok bo'limini tanlaymiz. Undan o'zimizga yoqqan shablonni tanlaymiz. U quyidagicha:



Uni korinishi o'zgartirib olamiz. Sahifa bo'limlarini FORMAT menyusidan Fonni tanlab o'zimizga yoqqan ko'rinishga keltiramiz. Unga 2 ta tugma joylashtiramiz. Uni ham stilini o'zgartiramiz. Sahifamiz quyidagi ko'rinishga keladi.



Endi MARUZA va VIDEO nomli sahifalar yaratib ularni to'ldirib olamiz. VIDEO nomli sahifaga video joylashtiramiz. MARUZA sahifaga esa biron mavzu bo'yicha ma'lumot joylashtiramiz. BU ikkala sahifani ham asosiy sahifamiz joylashgan papkaga saqlaymiz.

ASOSIY sahifaga qo'yilgan tugmalarga Maruza va Video sahifalarga silka qo'yamiz. Buning uchun tugma ustida sichqoncha o'ng tugmani bosib GIPERSILKA ni tanlaymiz hosil bo'lgan oynadan VIDEO va MARUZA sahifalarni tanlaymiz. Endi sahifamiz tayyor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.P.Марахимов, С. И. Рахмонкулова «Интернет ва ундан фойдаланиш асослари». Тошкент-2001.
2. Матросов, Сергеев, Чаунин. HTML 4.0 в подлиннике. ВHV-СПб, 2000
3. Вайнам Л, Вайнам В, Динамический HTML. Диасофт 2001
4. Уилтон П. Java Script. Основы. Символ-плюс. 2002
5. М.Арипов. Internet ва E-mailда ишлаш, Университет нашриёти, 2000.
6. Microsoft FrontPage 2000. Шаг за шагом.М., ЭКОМ,2000.
7. А.И. Tixonov. «Publikatsiya dannix v Internet» Uchebnoe posobie. Moskva Izdatelstvo «Мир» 2000
8. JavaScript ni urganish buyicha elektron qo'llanmalar.
9. Xaitov F.N., Yusupov R.M., Botirov D.B., Sattarov A.R, Shukurov E.X. Web-texnologiyalar. Metodik qo'llanma. Juzzax, 2005 y.